
O‘zRVB faoliyatining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi yuzasidan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi

O‘zRVB faoliyatining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta’minlash yuzasidan 2023 yil 11 oktyabrda “ZOOM” platformasi orqali “On-line” rejimda yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishda O‘zRVB faoliyatining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini ta’minlash, huquqbuzarliklar xavfini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan ichki tashkiliy chora-tadbirlar qabul qilinganligini ta’kidlab o‘tildi.



Shuningdek, yig‘ilishda monopoliyaga qarshi komplaens tizimi haqida tushuncha, asosiy vazifalari va maqsadi hamda raqobatga zid xatti-harakatlar amalga oshirilishining oldini olish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar tushuntirib o‘tildi.

Mas’ul ijrochilardan mazkur chora-tadbirlar ijrosining o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli ijro etilishi ta’minlash so‘raldi.

Shu bilan birga, O‘zRVB tomonidan tanlov (tender) va birja savdolari o‘tkazilishida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etish, O‘zRVB bilan chet tashkilotlar o‘rtasida tuziladigan shartnomalarda ayrim xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga ularni tovar yoki moliya bozorida faoliyat ko‘rsatayotgan boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga nisbatan afzal holatga qo‘yadigan imtiyozlar,

preferensiyalar va yengilliklarni asossiz ravishda berish holatlari hamda ayrim xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning faoliyati uchun boshqa kamsituvchi yoki imtiyozli shartlar (sharoitlar) belgilash holatlarining, til biriktirish va kartel kelishuvlar sodir etilishining oldini olish va bunday kelishuvlar va harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik ta’kidlandi.